



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## **Buxgalteriya Hisobini Yuritishda Outsorsing Xizmatlaridan Foydalanish Ahamiyati, Afzalliklari Va Kamchiliklari**

**M.Sh.Mamatkulov**

Ma'mun universiteti professori, i.f.d.

**X.M.Yuldashev**

“Hamkorbank“ ATB Korporativ biznes departamenti bosh mutaxassisi

### **ABSTRACT**

Mazkur maqolada buxgalteriya hisobini yuritishda outsorsing xizmatlaridan foydalanishning ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida globallasuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya outsorsingining xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvidagi o'rni, uning moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish hamda risklarni boshqarishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, buxgalteriya outsorsing xizmatlaridan foydalanishning asosiy afzalliklari bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi, moliyaviy ma'lumotlarning maxfiyligi va tashqi ijrochiga bog'liqlik kabi kamchiliklari ham asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishning eng maqbul shaklini tanlash va outsorsing xizmatlarini samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Keywords:** buxgalteriya hisobi, buxgalteriya outsorsingi, outsorsing xizmatlari, moliyaviy hisobot, xarajatlarni optimallashtirish, soliq xavflari, boshqaruv samaradorligi, axborot xavfsizligi, kichik va o'rta biznes.

Hozirgi globallasuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali tashkil etish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni yuritish jarayonida yuqori aniqlik, shaffoflik va tezkorlikni ta'minlash korxonalar barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy boshqaruv amaliyotida an'anaviy buxgalteriya hisobini yuritish shakllari bilan bir qatorda outsorsing xizmatlaridan foydalanish tendensiyasi tobora kengayib bormoqda.

Buxgalteriya hisobini outsorsing asosida yuritish korxonalar hisob va hisobot jarayonlarini uchinchi shaxs - ixtisoslashgan professional tashkilotlarga topshirishni anglatadi. Mazkur yondashuv korxonalariga yuqori malakali mutaxassislar xizmatidan foydalanish, soliq va moliyaviy xavflarni kamaytirish, buxgalteriya hisobini yuritish bilan bog'liq xarajatlarni optimallashtirish hamda boshqaruv jarayonlariga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes

subyektlari uchun buxgalteriya outsorsingi iqtisodiy jihatdan samarali va qulay mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, buxgalteriya hisobida outsorsing xizmatlaridan foydalanish ma'lum darajadagi xavf va cheklovlarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, axborot xavfsizligi masalalari, moliyaviy ma'lumotlarning maxfiyligi, outsorsing kompaniyasiga yuqori darajadagi bog'liqlik hamda xizmat sifati ustidan nazoratni ta'minlash muammolari ushbu yondashuvning asosiy kamchiliklari sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, buxgalteriya hisobini yuritishda outsorsing xizmatlaridan foydalanishning ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklarini chuqur tahlil qilish orqali korxonalar uchun eng maqbul hisob yuritish modelini tanlash, shuningdek, ushbu jarayonni samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati vujudga keladi.

Ma'muriy-boshqaruvda jarayonlarida ba'zi funktsiyalarni uchinchi shaxsga o'tkazish to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy-boshqaruv xarajatlarini tartibga solishga o'rin berdi, xarajatlarni kamaytiradigan muayyan funktsiyalarni outsorsing qilishning maqsadga muvofiqligini tahlil qilish va aniqlash uchun aniq belgilangan faoliyat sohaslariga ixtisoslashgan, shuningdek, yetarli amaliy tajribaga ega bo'lgan uchinchi tomon tashkilotlarini jalb qilish maqsadga muvofiqligi namoyon bo'la boshladi.

Buning natijasida, birinchidan, boshqa tashkilotning tayyor infratuzilmasidan foydalanish tufayli qo'shimcha xarajatlar kamayadi (o'z bo'limlarining ishlashini ta'minlash xarajatlari, masalan, kapital qurilish va ish haqi xarajatlari kamayadi). Ikkinchidan, xavflar yoki xatarlarni boshqarish yoki bartaraf etish holatlari soddalashdi, xususan risklarning bir qismi uchinchi shaxslarga o'tkazilishi yuz berdi.

**1-jadval. Buxgalteriya hisobini yuritishda outsorsing xizmatlaridan foydalanish afzalliklari va kamchiliklari**

<b>Afzaliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
E'tiborni asosiy biznesga qaratilishi	Ayrim funktsiyalar ustidan nazoratni yo'qligi
Mavjud bo'lmagan resurslar va mablag'lardan foydalanish	Ma'lumotlar tarqalishi ehtimoli
Outsorsing xizmatlarining past narxdaligi	Ma'lumotlarni tarqalishi hisobiga bozor raqobatida yutqazish ehtimoli
Risklar va xavflarni boshqarish imkoniyati	SHerikchilikka qaramlikning paydo bo'lishi
Buxgalteriya ishini yuritish va hujjatlar aylanmasining qisqarishi	Logistika jarayonlarining murakkablashishi
Buxgalteriya xodimlarini boshqarish va ularni saqlab turish xarajatlarining qisqarishi	Ijtimoiy keskinlik va tarafkashlik holatlarini yuzaga kelish ehtimoli
Buxgalteriya ishini yuritish jarayonlari to'xtab qolmasligi (xodimlarning kasalligi, nizolar)	Moliyaviy resurslarni to'liq nazorat qilinmasligi
Asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratilishi hisobiga mehnat unumdorligini oshishi	Ba'zan, axborotlarni olishda operativlikni yo'qolishi
Ma'muriy-boshqaruv xarajatlarini kamayishi	Boshlang'ich buxgalteriya ma'lumotlarining ishonchsizligi ehtimoli
Etuk mutaxassislarining maslahat va ko'maklarini olishning imkoniyati	O'z mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatlarini cheklanishi
Qo'shimcha kapital kiritish va dasturiy ta'minotni yangilash, kiberxavfsizlikni ta'minlash kabilarni amalga oshirish imkoniyati	Buxgalteriya outsorsing xizmati masofadan bajarilganligi sababli ayrim risklarni boshqarish qiyinligi

Buxgalteriya outsorsing kompaniyalari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar (mehnat to'lovi, mahalliy kompyuter tarmoqlarini rivojlantirish, binolarga texnik xizmat ko'rsatish va boshqalar) qanday bo'lishidan qat'i nazar, mijozlarni yo'qotmaslik maqsadida o'z xizmatlarini yanada professional tarzda amalga oshirishga harakat qiladi. SHu bilan birga, xarajatlarni qisqartirish nafaqat ish hajmining oshishi, balki bunday jarayonni tashkil etishning muqobil yondashuvlaridan foydalanish bilan ham bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislarga ega buxgalteriya outsorsing kompaniyasi o'ziga xos qobiliyatlarga ega bo'lgan xodimlarning kasbiy o'sishiga yordam berishi va o'z mijozlarining buyurtmalari bo'yicha ishlaydigan bunday mutaxassis o'zining professional manfaatlari sohasida faol rivojlanadi, nisbatan uzoq munosabatlarga mumkin bo'lgan sohalarda o'zining aniq bilimlarini ishga solishini kafolatlashlari shart. Buxgalteriya outsorsing xizmatlari samarali ekanligining yana bir omili unga oqilona tarzda munosabatda bo'layotganligi deyish mumkin. Zero, mijoz korxonada ish yuritish usullarini qayta taqsimlash oqibatida ma'lum imtiyozlarga ega bo'lish va xarajatlarni iqtisod qilish ehtiyojning paydo bo'lishida o'zini namoyon etadi.

Buxgalteriya outsorsing kompaniyalari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar (mehnat to'lovi, mahalliy kompyuter tarmoqlarini rivojlantirish, binolarga texnik xizmat ko'rsatish va boshqalar) qanday bo'lishidan qat'i nazar, mijozlarni yo'qotmaslik maqsadida o'z xizmatlarini yanada professional tarzda amalga oshirishga harakat qiladi. SHu bilan birga, xarajatlarni qisqartirish nafaqat ish hajmining oshishi, balki bunday jarayonni tashkil etishning muqobil yondashuvlaridan foydalanish bilan ham bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislarga ega buxgalteriya outsorsing kompaniyasi o'ziga xos qobiliyatlarga ega bo'lgan xodimlarning kasbiy o'sishiga yordam berishi va o'z mijozlarining buyurtmalari bo'yicha ishlaydigan bunday mutaxassis o'zining professional manfaatlari sohasida faol rivojlanadi, nisbatan uzoq munosabatlarga mumkin bo'lgan sohalarda o'zining aniq bilimlarini ishga solishini kafolatlashlari shart. Buxgalteriya outsorsing xizmatlari samarali ekanligining yana bir omili unga oqilona tarzda munosabatda bo'layotganligi deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobini yuritishda outsorsing xizmatlaridan foydalanish xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun samarali boshqaruv vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv korxonalarga asosiy faoliyatga e'tiborni kuchaytirish, ma'muriy-boshqaruv xarajatlarini kamaytirish, yuqori malakali mutaxassislar xizmatidan foydalanish hamda moliyaviy va soliq xavflarini oqilona boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, buxgalteriya outsorsingi ma'lumotlar maxfiyligi, axborot xavfsizligi va tashqi ijrochiga qaramlik kabi ayrim cheklavlarga ega bo'lib, ushbu jihatlarda shartnomaviy munosabatlar va nazorat mexanizmlarini puxta yo'lga qo'yishni talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdug'aniev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari. Monografiya. – T.: TMI, 2003. – 275 b.
2. Valishevskaya T.I., Sorokina N.G. Outsorsing kak strategicheskaya modelg' obespecheniya konkurentosposobnosti rossiyskix predpriyatiy // Vestnik OGU. 2007. №6. S.83-89.
3. Vannes A.Dj. Razvitie metodologii i organizatsii ucheta zatrat na outsorsing v stroitelnix organizatsiyax respubliki Irak. Avtoref. diss. na sois. uch. step. k.e.n. - Sankt-Peterburg: 2019, s. 20
4. Voskresenskiy M. Outsorsing biznes-protsessov – osnova upravleniya distantsionnami prodajami // Problemi teorii praktiki upravleniya. 2005. №1. S.63-68.
5. M.Sh.Mamatkulov, A.Toshtemirov. Analysis of the effectiveness of budget expenditure control systems. Web of Scientists and Scholars//Journal of Multidisciplinary Research. 2. – №9. 2024. – p. 4-13